

INGLIZ TILIDA TAFAKKUR FE'LLARINING MA'NO XUSUSIYATLARI

Abidova Zilola Xabibullayevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi tafakkur fe'llarning ma'no xususiyatlarini o'rganishga bagishlangan. Muallif tadqiqotlar natijasida fe'lni nutqda qo'llash me'yorlari, uning leksikografik talqini, hamda tarjima mezonlari ishlab chiqiladi. Bugungi kunga qadar olib borilgan lingvistik tadqiqotlar natijasida ingliz tilidagi holat fe'llarining oltita ma'no turi aniqlangan. Tafakkur va uning faoliyati jarayoni, natijasi va boshlanish-tugallanish chegaralariga ko'ra mavhum xususiyatga egagi, bir tafakkuriy holat boshqasiga ulanib chambarchas bog'lanib ketishi, aksariyat hollarda bir tafakkuriy jarayon boshqasining davomi yoki boshlanish nuqtasi ekanligi ushbu fe'llarning lug'aviy ma'no chegaralarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'ilishiga sabab bo'lishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: fe'l, tafakkur fe'llari, grammatick shakl, grammatick ma'no, leksema, Morfologik sath, tub fe'lllar, yasama fe'lllar, sinonimiya, antonimlik ma'no.

Abstract: This article is devoted to the study of the semantic features of mental verbs in English. As a result of the author's research, the norms of using the verb in speech, its lexicographic interpretation, and translation criteria are developed. As a result of the linguistic research carried out to date, six types of meaning of case verbs in the English language have been identified. It is based on the fact that thinking and its activity have an abstract nature according to the process, result, and beginning-completion boundaries, one mental state is closely connected to another, and in most cases, one mental process is the continuation or starting point of another, which causes difficulties in determining the boundaries of the lexical meaning of these verbs.

Key words: verb, mental verbs, grammatical form, grammatical meaning, lexeme, morphological level, basic verbs, artificial verbs, synonymy, antonymic meaning.

KIRISH

Mustaqil so'z turkumiga oid leksemalarning barcha xususiyatlarini ikki turga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mustaqil so'zning grammatick xususiyatlari kiradi va bu xususiyatlar ayni turkumga oid barcha leksemalarga tegishlidir. Morfologik sathda har bir so'z turkumining o'ziga xos grammatick kategoriyalari aniqlangan, masalan, o'zbek tilida fe'lning shaxs-son va zamon kategoriyalari ushbu turkumdag'i barcha birliklarni qamrab oladi. Bundan kelib chiqadiki, so'zning grammatick xususiyatlari ayni turkumdag'i barcha leksik birliklar uchun umumiy xarakterga ega. Grammatick shakl va grammatick ma'no bir turkumga oid so'zlar uchun bir xil – bunga o'zbek tilidagi fe'llar va ularning grammatick kategoriyalari yaqqol misol bo'la oladi.

Biroq flektiv-analitik morfologik qurilishga ega ingliz tilidagi fe'llarda grammatick shakl va grammatick ma'no umumiyligi doim ham kuzatilavermaydi. Xususan, holat fe'llarining ayrimlari davomiy zamon shakllarida tuslanmaydi – o'zbek tilida har qanday ma'noga ega fe'l har qanday zamon shaklida qo'llanishi mumkin. Demak, grammatick shakl va ma'no bir turkum ichidagi barcha so'zlar uchun umumiyl degan xulosa affiksial tillarga mos tushadi, flektiv-analitik tillar esa o'z tizimli tabiatiga ko'ra bu xulosani qisman inkor qiladi. Har qanday holatda ham grammatick ma'no va shakl umumiyligi aksariyat hollarda asosga ega, ingliz tilidagi zamon shakllari kabi holatlar istisno hisoblanishi mumkin. Mustaqil so'z turkumlariga oid leksemaning ikkinchi xususiyati faqat privativ ekanligi bilan grammatick ma'no va shakldan farq qiladi. Birlikning leksema sifatida e'tirof etilishi uchun unda o'ziga xos atash ma'nosi yoki ma'nolari bo'lishi lozim. Atash ma'nosi tarkibiga ko'ra boshqa leksemaning semasiga o'xhash bo'lishi mumkin, albatta, bunday leksemalar orasida ma'nodoshlik, hatto o'zaro variantdoshlik munosabatlari yuzaga keladi. Biroq bir leksema boshqasining ma'nosini to'liq takrorlashi, aynan bir xil bo'lishi mumkin emas. Shu sababdan so'zning semantik xususiyatlari privativ, grammatick xususiyatlari esa umumiyl xarakterga ega deb farqlash kerak. So'zning lug'aviy, ya'ni leksik ma'nosi – leksemaning ma'lum bir hodisa, predmet, subyekt, belgi yoki obyektiv haqiqat bilan bog'liq individual ifodasidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Leksik ma'no o'z navbatida semantik tarkibdan tashkil topgan. So'zning semantik tarkibi denotativ va konnotativ ma'nolarni o'z ichiga oladi. Leksikani ma'no tarkibiga ko'ra o'rghanish, har bir so'zning ma'nosini batafsil qamrab olish semantikaning asosiy vazifalaridandir¹.

Bugungi kunga qadar olib borilgan lingvistik tadqiqotlar natijasida ingliz tilidagi holat fe'llarining oltita ma'no turi aniqlangan. Shu ma'nolardan aqliy faoliyat fe'llari guruhiga to'xtalib o'tamiz. Ingliz tilida aqliy faoliyat ma'nosi tub fe'llar va yasama frazali fe'llar orqali ifodalanadi. Masalan, *to think, to realize, to guess* kabi so'zlar aqliy faoliyatni anglatuvchi tub fe'llar, *to look over, to pick up, to catch on, to think over* frazali fe'llar esa aqliy faoliyatni akslantiruvchi birikmalardir. Aqliy faoliyat maydoni “ong” ma'nosi asosiga quriladi. Guruhga oid so'zlar bevosita inson bilan bog'liq, uning faoliyatini akslantiradi deyish mumkin. “Ingliz tili grammaticasida va nutqiy faoliyat nazariyasiga ko'ra aqliy faoliyat, tafakkur fe'li (*mental-state verb*) tushunish, aniqlash, o'rghanish, rejalahtirish va qaror qabul qilish kabi ma'nolarga bog'liqdir. Tafakkur faoliyati fe'llari tashqaridan ko'rib, baholab bo'lmaydigan ong holatlarini ifodalovchi leksemalardir” Aqliy faoliyat fe'llari mavhum tushunchalarni so'zga ko'chiradi. Ya'ni inson aqliy faoliyatining u yoki bu turi aniq ko'zga tashlanmaydi, ongda kognitiv

¹ Курилович Е. Заметки о значении слова – очерки по лингвистике. – М.: Прогресс, 1962. – С. 54-78.

darajada sodir bo‘ladi. Bunday murakkab, mavhum tushunchalarni ma’no turlariga ajratib chiqish ham mushkul. Yuqoridagi ta’rif asosida tafakkur fe’llarini tushunish, rejalashtirish, qaror qilish va anglash fe’llariga ajratish mumkin. Demak, tafakkur fe’llari “ong faoliyati” umumiy ma’nosи ostida birlashadi, ushbu faoliyatning turlariga ko‘ra bir necha guruhlarga ajralib ketadi.

Verbs of understanding – tushunish fe’llari: *to understand* (tushunmoq), *to accept* (qabul qilmoq), *to fathom* (anglamoq), *to get* (tushunib olmoq), *to see* (kishi holatini tushunmoq), *to comprehend* (ilmiy yoki o‘quv materialini tushunmoq), *to perceive* (tushunchani anglamoq), *to apprehend* (g‘oyani tushunmoq), *to catch on* (dasturni, film yoki boshqa davomiy hodisani boshlanishdan kuzatmasdan tushunib olmoq), *to pick up* (ilg‘amoq, fahmlamoq), *to cognize* (ong ostida tushunmoq). Keltirilgan so‘zlarning barchasi “tushunmoq” ma’nosiga ega. Ba’zi fe’llar munosabatlarga oid, ya’ni kishilarning o‘zaro bir-birini “tushunish” faoliyatini, munosabatini anglatadi. Boshqalari ta’lim jarayonidagi materialni o‘zlashtirish, tushunish ma’nosiga ega. Ushbu guruh fe’llari orasida “tushunmoq” umumiy sema bo‘lsa, qanday jarayon va hodisani tushunish ya’ni “*tushuncha*”, “*g‘oya*”, “*ong ostida*”, “*kishi holatini*” kabi semalar xususiy xarakterga ega. Bu holat mavhum tushuncha-hodisalarini anglatuvchi fe’llarning o‘zaro umumiy va faqat o‘ziga xos xususiy semik xarakterini ochib beradi. So‘zlarning umumiy ma’nosи ularni ma’lum darajada variantdoshlik maqomiga qo‘yadi, xususiy semik jihatlar esa ushbu leksemalar orasida ma’nodoshlik munosabatlari faqat qisman bo‘lishini, ba’zi leksemalar bir umumiy ma’noga ega bo‘lib, o‘zaro sinonim hisoblana olmasligini isbotlaydi.

Verbs of planning – rejalashtirish fe’llari: *to plan* (rejalashtirmoq), *to arrange* (belgilamoq), *to project* (loyihalashtirmoq), *to intend* (ko‘zda tutmoq), *to aim* (maqsad qilmoq), *to map out* (xaritadek belgilab chiqmoq), *to ploy* (qo‘llash rejasini tuzmoq), *to system* (tizimlashtirish), *to program* (dasturlash), *to foresee* (oldindan ko‘ra bilmoq), *to forecast* (bashorat qilmoq), *to expect* (kutmoq), *to anticipate* (kutmoq, ko‘zda tutmoq). Bu fe’llarning barchasi nutqda qo‘llanganda o‘zi munosabatga kirishgan voqeа-hodisaning hali amalga oshmaganligini anglatadi. Amalga oshmagan ish-harakat yuzasidan shu ish-harakat haqida oldindan tuzilgan reja, tugallangan tafakkur faoliyati ma’nosи ushbu leksemalarning barchasini semantik jihatdan birlashtirib turadi.

Memory verbs – xotira faoliyati fe’llari: *to remember* (yodda tutmoq), *to recall* (eslamoq), *to forget* (unutmoq), *to look back* (tarixga, o‘tgan kunga nazar tashlamoq), *to remind* (xotirlatmoq), *to memorize* (yodlamoq), *to recollect* (xotirani tiklamoq), *to draw a black* (unutmoq), *to dismiss* (xayoldan ko‘tarilmoq) kabi fe’llarda umumiy “xotira” semasidan tashqari yana bir qator kichik ma’nolar mavjud. Masalan, xotirlash bilishning mahsuli, kishi bilgan narsa-hodisasini eslay oladi, xolos. Bundan kelib

chiqadiki, xotira fe'llari yana bir tafakkur fe'lining davomiy bosqichi hisoblanadi. Xotirlash faoliyati mashaqqatli, davomiy urinishlar natijasida yoki kutilmaganda biror hodisa yoki obyektga assotsiativ tarzda yuzaga keluvchi holat bo'lishi mumkin. "Xotirlamoq" ma'nosiga zid bo'lgan "unutmoq" ham xuddi shunday ikkiga ajraladi. Masalan, *to forget* (unutmoq), *to fade away* (xotiradan o'chib ketmoq) leksik birliklari unutish jarayonining uzoq vaqt talab etishini anglatadi. *To dismiss* (xayoldan ko'tarilmoq), *to slip (from mind)* (esdan chiqib qolmoq) leksemalari unutish kutilmaganda, qo'qqisdan yuz bergenini, unutilgan narsa-hodisa ahamiyatsiz bo'lganini anglatadi. Bu kichik ma'noni bildiruvchi so'zlar tafakkur fe'llarining boshqa guruhlaridagi so'zlar bilan ma'nodoshlik, antonimlik munosabatlari kirishmaydi. Sinonimiya, antonimlik ma'no munosabatlari xotirlash fe'llari orasida, o'z guruhi doirasida cheklangan.

Verbs of decision – qaror qabul qilish fe'llari: *to decide* (qaror qilmoq), *to solve* (yesmoq), *to hesitate* (ikkilanmoq), *to doubt* (shubhalanmoq), *to make up mind* (bir to'xtamga kelmoq). Bu fe'llar ham umumiylar qaror qabul qilish ma'nosidan tashqari to'liqlilik ma'nosiga ega, uzoq yoki qisqa o'yplash, tasavvur qilish jarayonidan so'ng tafakkur faoliyati tugallangan. Qaror qabul qilishni anglatuvchi leksemalar o'zaro shu guruh ichida ma'nodoshlik va zid ma'nolilik munosabatlari kirishadi. Mazmunan ular rejalashtirish ma'nosiga yaqin turadi, hatto rejalashtirishning tugallanish nuqtasi hisoblanadi.

Verbs of knowing – bilish fe'llari: *to know* (bilmoq), *to be aware* (xabardor bo'lmoq), *to be informed* (xabari bo'lmoq), *to be conscious* (anglamoq) fe'llari shubhasiz tafakkur faoliyatining eng yuqori nuqtasini anglatadi. Bilish holati mutlaq tugallangan ma'no bo'lib, agar boshqa tafakkur fe'llari bilan ma'no munosabatlari tahlil qilinsa, daraja qatorida bilish fe'llari qatorni yakunlovchi birlik bo'ladi. Tafakkur faoliyatining oliy darajasini bildiruvchi ushbu leksemalar shuning uchun ham rejalashtirish, tasavvur, qaror qabul qilish, tushunish kabi ma'nolar bilan sinonim yoki antonim bo'la olmaydi. "Tushunmoq", "rejalashtirmoq" va "qaror qabul qilmoq" kabi ma'nolarga ega fe'llar bilimning bir qismini tashkil etadi. Shunday ekan, "bilmoq" ma'nosiga ega barcha so'zlarni tafakkur fe'llarining darajaviy cho'qqisi sifatida e'tirof etish mumkin.

Verbs of imagination – tasavvur fe'llari: *to imagine* (tasavvur qilmoq), *to dream* (orzu qilmoq), *to picture* (xayol qilmoq), *to visualize* (ko'z oldiga keltirmoq), *to envisage* (faraz qilmoq) kabi leksemalar hali amalga oshmagan, hatto amalga oshish ehtimoldan yiroq bo'lgan hodisalarni o'z ichiga olgan tafakkur faoliyatini anglatadi. Tasavvur fe'llari qisman rejalashtirish ma'nosiga ega leksemalar bilan ma'nodoshlik munosabatiga kirishishi mumkin. Biroq ushbu ikki sema orasida bir yirik farq mavjud. Rejalashtirish ma'nosi aniq, yuz berishi muqarrar bo'lgan hodisalar yuzasidan olib borilgan tafakkur faoliyatini anglatadi. Tasavvur fe'llari aloqador bo'lgan voqe-

hodisalarning esa sodir bo‘lish ehtimoli past, shunday ekan, tasavvur fe’llari ma’nosida ham asosan mavhumlik ma’nosi hukmronlik qiladi.

Tafakkur va uning faoliyati jarayoni, natijasi va boshlanish-tugallanish chegaralariga ko‘ra mavhum xususiyatga ega. Bir tafakkuriy holat boshqasiga ularib chambarchas bog‘lanib ketishi, aksariyat hollarda bir tafakkuriy jarayon boshqasining davomi yoki boshlanish nuqtasi ekanligi ushbu fe’llarning lug‘aviy ma’no chegaralarini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masala ingliz tilining yuqori polisemantik xususiyatlari hisobiga ham murakkablashadi. Fe’llarda monosemiya – ya’ni bir leksemaning bir tor ma’noni anglatishi nisbatan kam uchraydigan holat ekanligi ma’lum. Polisemiyani tafakkur fe’llari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *to see* fe’lining asosiy lug‘aviy ma’nosi “ko‘rmoq”, ya’ni sezgi holati. *To get* fe’li esa asosiy lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra harakat guruhiga kiradi va “olmoq”, “qabul qilmoq”, “yetib bormoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Boshqa tomondan ushbu ikki leksema “tushunmoq” ma’nosini anglatishi bilan o‘zining polisemik xususiyatini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi tafakkur fe’llarini olti asosiy ma’no guruhiga bo‘ldik. Har bir guruhga oid umumiyligi va xususiy ma’nolar ayrim leksemalar misolida tahlil qilindi. Ba’zi tafakkur fe’llari keng lug‘aviy ma’noga ega bo‘lsa, boshqalari monosemantik tabiatlidir. Lekin so‘zning semantik xususiyati esa faqat semantik tarkibi bilan cheklanmaydi. Sababi, har qanday mustaqil ma’noga ega leksik birlik semantik jihatdan turli semalarga ajratilganidek, tildagi boshqa elementlar bilan semantik munosabatga ham kirishadi. Ma’no munosabatlarining eng keng tarqalgan turlaridan biri sinonimiya tafakkur fe’llari orasida muntazam kuzatiladi. Ba’zi fe’llar o‘z ma’no guruhni ichida bir-biriga sinonim, boshqalari boshqa guruhdagi so‘zlar bilan ham ma’nodoshlik munosabatlariga kirisha oladi. Masalan: *to understand* va *to get* fe’llari bir-birining o‘rnini bosa oladi, ularni variantdosh-ma’nodoshlar deyish mumkin. Lekin ushbu variantdoshlik munosabati nutqqa to‘liq ko‘chmaydi, chunki *to understand* fe’li rasmiy, norasmiy nutqda birdek qo‘llana oladi. Ammo *to get* fe’li faqat norasmiy nutqda ishlatilishi kerak. Xuddi shuningdek, barcha tafakkur fe’llari lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra bir-biriga sinonim bo‘lsa ham, nutqda bir-birining o‘rnini bosolmaydi. Ingliz tilidagi *to comprehend*, *to perceive*, *to visualize*, *to project* kabi ayrim tafakkur fe’llarini qo‘llanishiga ko‘ra rasmiy, ilmiy nutq doirasida cheklangan deyish mumkin. *To know*, *to think*, *to plan*, *to remember* kabi so‘zlar esa har qanday kontekstda qo‘llashga mos tushaveradi.

Ma’nodoshlik semantik munosabatining teskarisi bo‘lgan zid ma’nolilik tafakkur fe’llarida ham kuzatiladi. Tushunish, xotirlash va anglash fe’llari orasida antonimlik munosabati nisbatan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rejalashtirish ma’nosiga ega fe’llar orasida esa bunday semantik munosabat mavjud emas. Masalan, *to remember* – *to forget*, *to understand* – *to misunderstand*, *to realize* – *to get confused* leksemalari bir-

biriga mutlaqo zid ma'nolidir. Rejalahtirish, ya'ni "reja qilmoq" umumiylar ma'nosiga ega fe'lllar uchun esa "rejalahtirmslik" zid ma'nosiga ostiga birlashgan leksemalar yo'q. Bundan kelib chiqadiki, tafakkur fe'llari orasidagi zid ma'nolilik munosabati ba'zi ma'nolarda kuzatiladi, ayrim guruuhlar ichida bunday munosabatlar yo'q.

So'zlar orasidagi asosiy ma'no munosabatlari sifatida sinonimiya va zid ma'nolilik keltiriladi. Ammo munosabatlar faqat shu ikki tur bilan cheklanmaydi. Masalan, tildagi so'zlar ma'nolari orasida yana bir relyatsion bog'lama giperonimiya yoki giponimiya hisoblanadi. "Giponimiya semantik maydondagi asosiy paradigmatic munosabatlardan biri hisoblanadi. O'zaro giponim bo'lgan leksemalar iyerarxik tartibda joylashadi va bu iyerarxiya o'zaro qarindoshlik, assotsiativlik munosabatlariga asoslanadi. Giponimik munosabat bir turkum mazmunga oid leksemalarning o'zaro farqli, o'xshash bo'limgan tomonlariga asoslanadi"². Bir qarashda qism-bo'lak ma'no munosabatlari faqat otlarga xosdek ko'rindi. Biroq giponimik munosabatlar sifat va fe'l so'z turkumi doirasida ham kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi tafakkur fe'llari asos "ong faoliyati" ma'nosiga ega, uning turli klassifikatsiyalaridagi fe'lllar shu ma'noga ega va mustaqil ma'noga ham ega. So'zlar mustaqil ma'nosini boshqa leksemadan *noto'liqlik* yoki *natijaviylik* ma'nolari orasida giponimik munosabatga kirishadi. Masalan, *to remember* va *to recall* fe'llari "xotiramoq", "eslamoq" ma'nosiga ega. Faqat *to remember* fe'li xotirlash jarayonining davomiy bo'lganini, xotirlangan narsa-hodisa ham ahamiyati jihatdan muhim bo'lganini anglatadi. Aksincha, *to recall* fe'li "qo'qqisdan esga olmoq", "kutilmaganda eslamoq" ma'nosiga ega. *To cognize* va *to catch on* fe'llari ham *doimlik* kichik ma'nosiga asosan giponimik munosabatga kirishadi: *to cognize* doimiy aqliy faoliyat mobaynida yuzaga keladi, uning ma'nosini "bosqichma-bosqich, sekin-asta tushunish, anglab yetish". Lekin *to catch on* "darhol tushunib olish", "chala-chulpa anglash", "tezda ilg'ab olish" ma'nosiga ega. Bir tafakkur holati uchun kishidan ancha vaqt, intensiv urinish, berilish talab etilsa, boshqasi "o'z-o'zidan, birdaniga sodir bo'lgan" degan ma'noni ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, fe'lllar orasida ham giponimik munosabatlar mavjud. Otta yoki sifatda giponimik ma'no munosabati denotativ ma'nodagi "butun-qism" munosabatlarida namoyon bo'ladi. Fe'llardagi giponimik munosabat ularning kontekstual ma'nolarini qamrab oladi. Konnotativ semadagi davomiylik, intensivlik va natijaviylik semalari qay darajada (*to'liq* yoki *qisman*) bo'lishi umumiylig'aviy ma'noga ega tafakkur fe'llari orasidagi giponimik munosabatlar asosidir.

XULOSA

Ingliz tilida fe'lllar ikki asosiy mazmuniy guruhga va bir ko'makchi turga ajratiladi. Harakat va holat ma'no turlari orasida *linking verbs* (bog'lama fe'lllar) bor

²Дорошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс, 1973. – С. 87.

bo‘lib, bu tur fe’llar ma’no mustaqilligiga ega emas. Ularning asosiy vazifasi gapda fe’lning kategorial xususiyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Fe’l morfologik, sintaktik va semantik jihatdan eng yirik til birligidir. Bir fe’lning shakliy ko‘rinishlari bir necha yoki bir necha yuzta bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, ingliz tilidagi harakat fe’llari o‘zining shakl sonlari ko‘pligi, fe’lning barcha kategoriyalariga egaligi bilan ajralib tursa, holat fe’llari ma’no imkoniyatlarining kengligi, polisemantikligi bilan e’tiborni tortadi. Aynan shuning uchun holat fe’llarining ma’no turlari ham ingliz tilida aniq ajratilgan. Ba’zan bir holat fe’li gapda bir necha holat ma’nolarini anglatishi mumkin, bu esa ushbu so‘zlar ko‘pma’nolilik xususiyatiga egaligiga yana bir yaqqol dalildir. Ingliz tilida aqliy faoliyat deb ajratilgan ma’no guruhiga mansub tafakkur fe’llari o‘z ma’nosiga ko‘ra yana qator guruhchalarga bo‘linib ketadi. Turli tafakkur jarayonlarini anglatuvchi holat fe’llari o‘z ma’nolari tarkibida va boshqa tafakkur ma’no guruhlaridagi so‘zlar bilan ham ma’noviy munosabatlarga kirisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Курилович Е. Заметки о значении слова – очерки по лингвистике. – М.: Прогресс, 1962. – С. 54-78.
2. Дорошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс, 1973. – С. 87.
3. Rishatovna, Babaeva Komila, et al. "Modern foreign popular music as a means of teaching an english language to students of a non-linguistic profile." *International journal of psychosocial rehabilitation* 24.1 (2020): 1901-1905.
4. Abidova, Zilola Khabibullayevna. "Translation Problems of Verbs of Thought in Different System Languages." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 2.2 (2023): 1-5.
5. Abidova Zilola Xabibullaevna. Ingliz tilida f’el va f’el kategoriyalari tadqiqi
6. Til o‘qitish: yangi yondoshuv va innavatsiyalar. Toshkent sharqshunoslik Universiteti:2022/5/10 pp.92-95
7. Saidakbarova, Saodat. (2022). Classification of English and Uzbek idioms depending on gastronomic codes. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. 12. 51-55. 10.5958/2249-7315.2022.00240.4.
8. Abidova, Zilola Xabibullayevna. "Ingliz va o ‘zbek tillaridagi tafakkur fe’llarining tahlili." *Scientific progress* 3.2 (2022): 736-739.
9. Абдуллаева, М. (2022). Инглиз–ўзбек бадий таржималарида муқобил варианти шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*, (1), 78-81.
10. Zilola Xabibullayevna Abidova. “Tarjimalarda tafakkur fe’llarini semantik darajalanish usullari.” “Topical Challenges in teaching Foreign languages” 186-192.
11. Abidova Zilola Khabibullayevna.“Analysis of Tipological Classification of Languages.”“Barqaror rivojlanish kontekstida xorijiy tillarni o‘qitish:ilog‘or tajribalar,muammolar va imkonoyatlar” (2):152-157.